O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SARIOSIYO TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2021 - yil 2 - dekabr 251-8-116-Q/21 Sariosiyo tuman hokimligi

Tumandagi o‘rmon fondi maydonlarini yong‘indan saqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida

Tumandagi o‘rmon fondi yerlarini yong‘in mavsumi davomida, ya’ni o‘rmonlarda qor qatlami ketgan paytdan boshlab barqaror yomg‘irli kuz ob-havosi kelgungacha yoki qor qatlami paydo bo‘lgan davrgacha o‘rmonlarda yong‘in chiqish xavfi kuchayishini hisobga olib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 noyabrdagi 506-sonli qarori 1-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi o‘rmonlarida yong‘in xavfsizligi qoidalari” hamda Sariosiyo tumanidagi “Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaligining xatini ko‘rib chiqib, hamda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Sariosiyo tumanidagi “Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaligi (A.Odilov), tasarrufidagi hamda o‘rmon maydonlari bo‘lgan fermer xo‘jaligi, tashkilot va korxona shuningdek, o‘rmonda ish olib boruvchi barcha korxona tashkilot va fermer xo‘jaligi rahbarlari, mahalla fuqaro yig‘inlari raislariga o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfsizligi qoidalarini bajarish, o‘rmon yong‘iniga qarshi kurash, yong‘in yuz berganda uni bartaraf etish choralarini ko‘rish vazifasi topshirilsin.

2. “Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaligi (A.Odilov) tasarrufida o‘rmon maydonlari bor bo‘lgan barcha korxona, tashkilot va fermer xo‘jaliklari rahbarlariga quyidagilar yuklatilsin:

- o‘rmon fondi yerlarida yongin xavfsizligi ishlarini bajarish;

- yong‘inni o‘chirishi uchun zarur bo‘lgan texnika va asbob-uskunalarni ishlashga tayyor holatga keltirish;

- o‘rmonlarda yong‘inga qarshi yo‘llar, himoya polosalari va suv havzalarini qo‘rish;

- aholi, o‘quvchi va talabalar, o‘rmonda ish olib boruvchi yoki o‘rmon hududida obektlarga ega bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasa xodimlari o‘rtasida olov bilan ehtiyot bo‘lib muomala qilish, hamda o‘rmonlardagi yong‘inlarni o‘chirish qoidalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

- keng foydalanadigan o‘rmon yo‘llari bo‘ylab o‘rmonda olov bilan ehtiyot bo‘lib muomala qilish zarurligi va yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantiruvchi e’lon va

plakatlarni o‘rnatish;

- o‘rmon hududlarida sodir bo‘ladigan yong‘inlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish.

3. Tasarrufida avtomobil yo‘llari bo‘lgan korxona va tashkilotlarga quyidagilar yuklatilsin:

- yo‘llar bo‘ylab ajratilgan polosani shox-shabbalar va boshqa tez yonadigan materiallardan tozalangan holda saqlash;

-yo‘l polosalari bo‘ylab yong‘in havfi mavsumi mobaynida 1,4 metr kenglikda ma’danlashtirilgan polosani tozalangan xolda saqlash;

- yong‘in paydo bo‘lganda darhol uni o‘chirish choralarini ko‘rish.

4. Tasarrufida elektr uzatish, aloqa, radiolashtirish liniyalari va quvurlar bo‘lgan korxona va tashkilotlarga:

- yong‘in xavfi mavsumi mobaynida ushbu liniyalar urgan o‘rmon so‘qmoqlarini xavfsiz holatda saqlashga va quruq joylarda bunday liniyalarning yog‘och machtalari va simyog‘ochlari atrofini qazib qo‘yish;

- o‘rmon massivlari bo‘ylab o‘tadigan quvurlar bo‘ylab ajratilgan polosalar atrofini yong‘inga nisbatan xavfsiz holatini saqlash va liniya nazoratchilari turadigan joylar atrofini, shuningdek quvurlardagi quduqlar atrofida 2-2,5 metr bo‘lgan ma’danlashtirilgan polosa tashkil qilish.

5. Yong‘in xavfi mavsumi mobaynida o‘rmon bilan qoplangan maydonlarda quyidagilar ta’qiqlansin:

- o‘rmonga yonib turgan gugurt, sigaret qoldiqlarini tashlash, tamaki trubkasidan cho‘g‘li kulni qoqish;

- o‘rmonda ov qilish;

- moyli yoxud benzin, kerosin va boshqa yonuvchi moddalar shimdirilgan artish materiallarini o‘rmonda ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilmagan joyda qoldirish;

- o‘rmonda dvigatel ishlab turgan paytda yonilg‘i quyish, dvigatelning energiya tizimi nosoz bo‘lgan mashinalardan foydalanish, yonilg‘i qo‘yilayotgan mashinalar yonida chekish yoki ochiq olovdan foydalanish;

- o‘rmon hududlarida, sayhonliklarda, o‘tloqlarda o‘tlarni yoqish hamda o‘rmonda va o‘rmonga tutash bo‘lgan yer uchastkalarida angizlarni yoqish.

6. O‘rmonda ish olib boruvchi barcha korxona va tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari, shuningdek madaniy ommaviy tadbirlarni o‘tkazayotganlarga o‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi va ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan normalar bo‘yicha o‘rmonlardagi yong‘inlarni uchirish uchun yong‘inga qarshi asbob-uskuna va vositalarga ega bo‘lish hamda o‘t o‘chirish asbob-uskunalari va vositalarini darhol foydalanishga to‘liq tayyor holda saqlash vazifasi yuklatilsin.

7. Tumandagi o‘rmonlarda yong‘in xavfsizligi qoidalarining bajarilishi ustidan davlat nazorati tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi (X.Usmonov) va FVB boshlig‘i (I.Rahmonov) zimmasiga, “Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaligi tasarrufida bo‘lgan o‘rmonlarda o‘rmon xo‘jaligi direktori (A.Odilov) zimmasiga, fermer xo‘jaliklari tasarrufida bo‘lgan o‘rmonlarda Qishloq va suv xo‘jaligi

bo‘limi boshlig‘i (N.G‘afforov) zimmasiga yuklatilsin.

8. “Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaliklari tasarrufida bo‘lgan o‘rmon fondi yerlarida yong‘in yuz berganda uni uchirish bo‘yicha tezkor reja 1-ilovaga muvofiq qabul qilinsin.

9. Tuman hokimining ushbu masalaga doir 2016 yil 07 aprel kunidagi 380-sonli qarori bekor qilinsin.

10. Tuman hokimligi axborot matbuot kotibi M.Xasanova va “Sariosiyo” gazetasi taxririyati bosh muxariri A.Raxmonov mazkur normativ xuquqiy xujjatni “Sariosiyo” gazetasiga chop etilishi xamda tuman xokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini tashkillashtirsin.

11. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

12. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.P.Xujaqulov**

Сариосиё туман ҳокимининг
2021 йил 2 декабрдаги
251-8-116-Q/21-сон қарорига
1-илова

O‘rmon fondi yerlarida o‘rmon yong‘ini yuz berganda uni o‘chirishni

tashkil etishning tezkor

REJASI

№	O‘rmon yong‘inini o‘chirishga biriktirilgan MFY	O‘rmon aylanmasi	Biriktiril-gan texnika	Jamoatchi o‘t uchiruvchi-lar soni	Ajratilgan o’t o’chirish asboblari	O‘t o‘chirishga javobgar mas’ul shaxs
1	Sangardak MFY	Qizilsuv	2	10	20	O‘rmonchi Qosimov N.
2	Sangardak MFY	Oqsuv	2	10	20	O‘rmonchi Nabiyev Sh.
3	Sangardak MFY	Daxana	2	10	20	O‘rmonchi Mirzaev B.
4	Sangardak MFY	Bog’cha	2	10	20	O‘rmonchi Ismatullayev M.
5	Sangardak MFY	Xo’jaipesh	2	12	24	O‘rmonchi Mahmudov O.
6	Sangardak MFY	Qorabuloq	2	12	24	O‘rmonchi Mahmudov G’.
7	Subxidam MFY	Xubon	2	10	20	O‘rmonchi Mirzaev S.
8	Nilu MFY	Xonjiza	3	12	24	O‘rmonchi Bekov A.
9	Daragiston MFY	Obizarang	2	10	20	O‘rmonchi Jo‘raev R.
10	Xufar MFY	Ustoch	-	10	20	Rahmonov S.

11	Uzbekiston MFY	Kundai juvoz	-	10	20	O‘rmonchi Raxmonov B.
12	Sariosiyo ShFY Afrosiyob MFY	Uzun-2	2	10	20	Rahimqulov D.